



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



2023-yil 2-noyabr, payshanba,
130 (23.849)-son

**KUN
HIKMATI**
Hayotda hech
narsa tasodifiy
emas, biz ayrim
holatlarga tayyor
emasmiz, xolos.

Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) <https://www.instagram.com/zarnews.uz>

SAMARQAND – O'ZBEKISTON-FRANSIYA SAMMITI MEZBONI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron 1-2-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.

Davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlari Samarqandda o'tkazilishi belgilangan.

Shu munosabat bilan Prezidentlar kecha Samarqandga keldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev dastlab Imom Buxorii maqbarasini ziyorat qildi.

Qur'onni karim oyatlari tilovat etildi. Allohdan yurtimizga tinchlik-osoyshtalik, xalqimiz manfaati yo'lidagi sa'y-harakatlarga xayru baraka tilab duo qilindi.

Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makronning bugun o'tkazadigan uchrashuvlarda O'zbekiston bilan Fransiya o'rtaisdagi ko'p qirrali munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

CHIQINDIDAN TAYYOR MAHSULOTGACHA

Yurtimizda Fransiya bilan yaqin hamkorlikda ko'plab yirik loyhalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Fransiya Taraqqiyot agentligi ishtirotida "Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishni modernizatsiyalash loyihasi" hayotga ttabiq etilmoqda.

To'rt yillardiki, Samarqand shahridagi "Maroqand obod" davlat unitar korxonasi Yevropa Ittifoqining 8 million hamda Fransiya Taraqqiyot agentligining 23,53 million yevrolik moliyaviy ko'magi bilan Samarqand shahri va tumanida aholining maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatini ko'rsatib kelmoqda.

Fransiya Taraqqiyot agentligi ajratgan kredit mablag'lari hisobidan qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish va olib chiqish uchun 80 ta maxsus mashina sotib olindi. Shuningdek, chiqindi poligon uchun 5 ta yig'uvchi, ortuvchi va tozalovchi maxsus texnika xarid qilindi. Kelgusida maxsus texnikalarni saqlash uchun yangi garaj, chiqindilarni yig'ish majmuasi kabi inshotlarni qurish ko'zda tutilgan.

Fransiyalik hamkorlarimiz bilan kelishgan holda loyihani amalga oshirish muddati 2024-yilning 30-iyuniga qadar uzaytirildi. O'tgan yili agentlik tomonidan qurilish komponentlari bo'yicha ishlangan loyiha-smeta hujjatlari ko'rib chiqilib, joriy yilda ikki bosqichli xalqaro tender jarayonlari o'tkazildi, hozirda q'olib kompaniya bilan shartnoma imzolash bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

Nurbek SAIDOV,
loyiha direktori.

Shuningdek, Samarqand shahrida 15 ta chiqindi to'plash shoxobchasi uchun yer ajratish, markaziy chiqindixonada chiqindilarni ko'mish (rekuvitatsiya) qilish ishlari davom etmoqda. Loyiha doirasida maishiy chiqindilarni saralash zavodi hamda biogazni yogilg'iga aylantirish tizimini tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Hamkorlar ko'magida chiqindilar salarash zavodini barpo etish rejalashtirilgan bo'lib, zavod yarim avtomatlashgan tizimda yiliga 20800 tonna saralangan mahsulotni qayta ishlashga yo'naltirish quvvatiга ega bo'ladi. Kelajakda chiqindi miqdori oshishi sababli zavodni kengaytirish va qo'shimcha quvvat kiritish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu majmuada ishchilar salomatligi, ekologiya va atrof-muhit xavfsizligi inobatga olinib, hidsizlantirish, changsizlantirish tizimlari va boshqa qulayliklar yaratiladi.

Hozirda fransiyaliklar bilan iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichda rivojlantirish uchun ish olib yorpamiz. Tez orada geoaxborot tarmoq va axborot tizimlari boshqarish uchun dasturiy ta'minot yaratish ishlari boshlanadi.

Nurbek SAIDOV,
loyiha direktori.

YANGI SAVDO MAJMUASI OCHILDI

Samarqand tumanida "AVTO MALL SAMARQAND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining avtomobil ehtiyyot qismlari savdo majmuasi ish boshladi.

Joriy yilning avgust oyida viloyatimizga tashrif buyurgan Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur bozorni o'z ichiga olgan savdo, sanoat va servis majmuasi qurilish maydonida bo'lgandi. 37 hektar hududni egalagan majmuada umumiyoq qiymati 2 trillion 79 milliard so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Avtomobil ehtiyyot qismlari bozori ushbu loyihalarning eng yirigi hisoblanadi va 11 getkar maydonda barpo etildi.

"Nurli kelajak ishonch servis" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan 500 milliard so'mlik loyiha asosida bunyod etilgan majmuuaning ochish marosimida viloyat jamaatchiligi vakillari, tadbirkorlar ishtirok etdi.

– Ushbu savdo markazi "Univer Pro Style" MCHJ loyihasi asosida bunyod etildi, – deydi "Nurli kelajak ishonch servis" MCHJ rahbari Akbarali Qayumov. – Majmuuning birinchi qavatida avtomobil ehtiyyot qismlari savdosiga mo'ljallangan 751 ta savdo do'konii, 2 ta avtosalon, bank shoxobchalarli va yengil avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish nuqtalari mavjud. Shuningdek, 2300 ta avtomobil sig'imiga ega avto-

turargoh o'rinnan. Ikkinci qavatda esa kafe va restoranlar, tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi, trenajor zali, ma'muriy xonalar tashkil etilgan. Mazkur obyekt ish boshlashi bilan 3 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

Savdo markazi Samarqand shahri markazidan 10 kilometr masofada Samarqand xalqa yo'li bo'yida joylashgan xaridorlar uchun qulaylik yaratadi.

– Bu yerlar jarlik, noteks va tashlandiq joy edi, endi esa qishlog'imiiz atrofi sanoat, xizmat ko'rsatish hududiga aylandi, – deydi Samarqand tumanidagi Do'stlik mahallasi hokim yordamchisi Bahodir Abdurahmonov. – Bizning mahallamiz aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bozor ishga tushgach, yuzlab mahalladoshlarimiz shu yerda ishga joylashib, doimiy ish o'rniiga ega bo'lidi. Umuman, bozor atrofidagi to'rt-besh mahalladan ko'plab kishilar endi shu yerdan daromad topishi mumkin.

S.MARDIYEV

S.MARDIYEV

TIBBIYOT ZAMON TALABIGA MOSMI?



Viloyat hokimligida
aholiga ko'rsatilayotgan
tibbiy xizmat sifati
va samaradorligini
oshirishga bag'ishlangan
yig'ilish o'tkazildi.

Viloyat hokimi E.Turdimov hamda Sog'liqni saqlash vaziri A.Inoyatov ishtirotida o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan soha oldiga qo'yilayotgan vazifalardan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan ishlar tahsil qilindi.

Bugungi kunda viloyatdagi 338 ta davolash-profilaktika muassasasi tomonidan 4 milliondan ortiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda. Ularda 8 ming nafardan ortiq shifokor va 30 ming nafarga yaqin hamshira faoliyat olib bormoqda.

Joriy yilning 9 oida viloyatda 12 ta oilaviy shifokor punkti, 5 ta oilaviy poliklinika va 30 ta mahalla tibbiyot punkti tashkil etildi. Natijada 850 ming nafar aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtirildi. Bu muassasalarda ochilgan 2100 o'rinni kunduzgi statsiyarda 70 mingga yaqin bemor o'z salomatligini tiklash imkoniga ega bo'ldi.

Viloyatda joriy etilgan 160 turdag'i yuqori texnologik-laparoskopik, torakoskopik va endovaskulyar jarrohlik amaliyotlari orqali 5000 ga yaqin bemor o'z'

transplantatsiyasi amalga oshirildi.

Oz navbatida, viloyat davolash-profilaktika muassasalarini tomonidan tuman va shahar tibbiyot birlashmalarining o'zida 1397 nafar bemorda buyrak, 1 nafrarida jigar transplantsiyasi amalga oshirildi.

Viloyatda joriy etilgan 160 turdag'i yuqori texnologik-laparoskopik, torakoskopik va endovaskulyar jarrohlik amaliyotlari orqali 5000 ga yaqin bemor o'z'

transplantatsiyasi amalga oshirildi.

Ana shunday izlanishlar natijasida Samarqandda tibbiyot sohasiga robot texnolog-

Tibbiyot muassasalariga budget mablag'fari hisobidan 17 turdag'i asbob-uskunalar xarid qilinib, immunogenetik laboratoriya tashkil etildi. Kattalarda 3013 ta, bolalarda 405 ta ochiq yurakda yuqori texnologik jarrohlik muolajalari bajarildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi matbuot xizmatining qayd etishicha, Prezidentimiz tashabbusi bilan ajaratilgan mablag'lar hisobidan viloyat bo'yicha 145 nafar bolalar va 141 nafrar kattalarda yuqori texnologik operatsiyalar o'tkazilyapti.

Hududda tibbiy xizmat sifatini yuksaltirish uchun 100 nafarga yaqin shifokor Germaniya, Turkiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Singapur, Saudiya Arabistoniga kabi qator davlatlarning nufuzli klinika va universitetlarda malaka oshirib qaytdi.

Ana shunday izlanishlar natijasida Samarqandda tibbiyot sohasiga robot texnolog-

yalari kirib kelmoqda.

Kelgusi yilda kasalliklarni erta bosqichlarda aniqlash darajasini 70 foizga yetkazish, xastaiklar asoratini 50 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, viloyat muassasalarida yana 50 turdag'i ilg'or davolash usullarini joriy qilish rejalashtirilmoqda.

Tangidi-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda bu boradagi ishlarni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tizimli davom ettirish, mavjud muammo va kamchiliklarni samarali hal etish uchun yuksak bilim va tajribaga ega, tashabbuskor hamda fidoyi kadrlarga ehtiyoj kattaligi qayd etildi.

Majlisda shu paytgacha viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinosari sifatida ishlab kelgan Suhrob Zayniyev boshqarma boshlig'i vazifasini bajaruvchi etib tayinlangan ma'lum qilindi.

Har bir murojaat e'tiborda bo'lsa, muammolar barham topadi

31-oktobr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatidan tashqari to'qson ikkinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyani Kengash kotibi yuqori murojaatni bajaruvchi S.Uemonov boshqardi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri M.Turdiyevning viloyatda aholi murojaatlarini va muammolari bilan ishslash holati yuzasidan axboroti tinglandi.

Axborotda ta'kidlanishicha, joriy yilning yanvar-sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri M.Turdiyevning viloyatda aholi murojaatlarini va muammolari bilan ishslash holati yuzasidan axboroti tinglandi. Keyingi yillarda ikki davlat o'rta-sida ishga solinmagan imkoniyatlar, hamkorlikdagi yangi loyihalar mavjudligi oydinlashmoqda. Bu o'z navbatida davlatlar o'tsida tovar ayirboshlash sohasida ham sezilmoqda. Viloyatimiz misolida oladigan bo'lsak, 2022-yilda Samarqanddan Fransiyaga tovar eksporti kuzatilmagan bo'lsa, o'tgan yilning yanvar-sentabr oyalarida 8556,4 ming AQSH dollarilik mahsulot xarid qilingan. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari ko'ra, joriy yilning o'tgan davrda viloyatimizdan farang o'kasiga 116,6 ming dollarlik mahsulot sotilgan bo'lsa, yilning 9 oyida 7946,9 ming AQSH dollarilik mahsulot xarid qilingan. Ya'ni, o'sish sur'ati 92,9 foizni tashkil etib, jami importning 0,5 foizini tashkil etmoqda.

deya qo'liga supurgi olmayotgan fuqarolar uchramoqda. Bu mahalla faollari, jamoatchilik, diniy ulamolar ham tashabbuskorlik ko'rتاب, aholi o'rta-sida targ'ibot ishlarni lozimligini taqzo etadi.

Axborotda keltirilgan masalalar yuzasidan "Hududi elektr tarmoqlari" AJ Samarqand filiali direktori U.Nazarov, viloyat kambag' alliqni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i Sh.Eshonqulov ma'lumot berdi. Mavjud muammolarni hal etish borasida mutasaddilar tomonidan ilgari surilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish, mas'ul idora rahbarlarining aholi muammolari va murojaatlar bilan ishslash faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda mansabdar shaxslarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni begilash hamda ularni navbatdagi sessiyalarda muhokama qilib borishga kelishib olindi.

Shuningdek, sessiyada ijtimoiy soha ob'ektlarini kuz-qish mavesumiya tayyorlash bo'yicha qo'shinchaligi chora-tadbirlar hamda jamaot ehtiyojlarini uchun yer uchastkalarining obib qo'yilishiga ruxsat berish to'g'risidagi masalalar ham ko'rib chiqilib, Kengash qarorlari qabul qilindi.

Deputatlar viloyat hokimining Hamrayev Oybek Nematovichni Samarqand viloyati hokimining o'rinosari – investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlash to'g'risidagi qarorini tasdiqladilar.

Joriy yilgi "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumi yangi nizomga muvofiq, o'quvchilar, profesional ta'lum muassasalarini, oliy ta'lum muassasalarini talabalari va mahalla yoshlari o'rtaida belgilangan yosh toifasida o'tkazilmoqda. Olimpiada doirasida viloyatdagi maktab o'quvchilarini sinflararo maktab bosqichi, maktablararo tuman (shahar) va hududiy-final bosqichida yengil atletika, shaxmat, shashka, voleybol, stol tennis, mini futbol va "Quvnoq startlar" bo'yicha musobaqalarda bellashdi.

"Besh tashabbus olimpiadasi":

KUCHLILAR SARALANMOQDA



7-17 yosh toifasida 238 ming 808 nafar o'quvchi-yoshlar qamrab olindi. Musobaqaning hududiy final bosqichida 126 nafar o'quvchi g'olib va sovindorlar qatoridan joy oldi.

Professional ta'lum muassasalarini o'quvchilarining 5124 nafari shaxmat, shashka, voleybol bo'yicha sektorlararo tuman (shahar) bosqichlarida ishtirot etdi va 352 nafar o'g'il-qiz musobaqaning hududiy bosqichiga yo'llanmani qo'iga kiritdi.



Musobaqaning viloyat final bosqichi 1-4-noyabr kunlari bo'lib o'tadi.

Oly ta'lum muassasalarini talabalari sportning mini futbol, stol tennis, voleybol, yengil atletika va stribturlari bo'yicha guruhlararo fakultet, fakultetlararo OTM bosqichlarida bellashdi.

Musobaqlarda 18 ming 277 nafar talaba ishtirot etib, bellashuvlarning oliy ta'lum muassasalararo hududiy bosqichga 490 nafar talaba yetib keldi. Endi 2-8-noyabr kunlari musobaqaning OTMlararo hududiy bosqichi o'tkaziladi va g'olib jamoalar 13-18-noyabr kunlari olimpiadaning respublika final bosqichida ishtirot etadi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning mahalla yoshlari o'rtaida musobaqlarida 14-30 yosh toifasidagi 146 ming 669 nafar o'g'il-qiz qamrab olingan. Ayni paytda sportning gimnastrada, voleybol va milliy kurash turlari bo'yicha ko'chalararo, mahallalararo va sektorlararo bosqichlarida g'oliblikni qo'iga kiritgan o'g'il-qizlar olimpiadaning tuman va viloyat bosqichlariga saralamoqda.

Musobaqlarning tumanlararo bosqichi 8-noyabrda yakunlanadi va g'oliblar 16-26-noyabr kunlari hududlararo bosqichda ishtirot etadi.

F.RO'ZIBOYEV.

Ha, shunday. Payariq tumani Fitrat mahallasidagi 97-umumiylar o'rta ta'lum maktabi 2007-yilda qurilgan. Ya'ni, qishloq-dagi mavjud maktabda o'quvchilar soni oshib ketgani uchun 180 o'rinni mo'jazgina yangi maktab tashkil etilgandi. Bu o'sha paytda muammoni hal etish uchun kifoya qilgandi. Lekin oradan yigirma yilga yaqin vaqt o'tib, qishloq kengaydi, maktabda o'quvchilar soni ham oshdi. Hozir bu dargohda 300 nafardan ortiq o'quvchi ta'lum oladi.

O'tgan o'quv yillarda maktabni 16 nafar yigit-qiz bitirgan. E'tiborli, ularning barchasi ta'luming keyingi bosqichida o'qishnga davom ettiradigan bo'libdi. 7 nafar bitiruvchi davlat oliy ta'lum muassasalariga, 8 nafari nodavlat oliy o'quv yurtlariga va bir nafari teknikumga o'qishga qabul qilin-gan. Avvallari bittagina birinchini sinf tashkil etilgan bo'lsa, bugunga kelib, ikkita bo'lgan. O'quvchilar soni ko'payib borayotgani sababli tabiiyki, darslar ikki navbatda tashkil etiladi.

– Maktabga qo'shimcha sinfonxonalari qurish uchun yana dasturlarni kutishinga to'g'ri kelardi, – deydi 97-maktab direktori Aziz Qorjovov. – "Tashabbusli budget"da maktab uchun qo'shimcha binolar qurish va jihozlash bo'yicha loyihalari bilan ishtirot etish imkoniyati yaratilgach, mahalladoshlarimiz bilan maslahatlashib, unda qatnashishga qaror qildik. "Tashabbusli budget"ning joriy yil birinchini mavsumida 1 milliard 200 million so'mlik loyihami o'rta ga tashladik. Maktab jamoasi, mahalladoshlarimiz – barchamiz birligida harakat qildik. Yutsak, muammo hal bo'lishiga ko'nglimizda umid uyg'ondi va 2500 dan ortiq ovoz bilan g'olib bo'dik. Bunda har bir o'qituvchi va o'quvchimizning, qishloq doshlarimizning hissasi bortligi uchun endi ushbu mablag'dan samarali foydalanishni ham o'zimiz nazorat qildik. Baxtimiga insofli quruvchi tenderda g'olib bo'lib, qurilishni boshladi. Maktab binosining yonidan ikki

Masalani mahalla ahli hal qildi



qavatlari sakkiz sinf xonasini qurildi. Bu jarayonda ham doim quruvchilar yonida turidik. Qurilish ishlari qisqa vaqt ichida amalga oshirilib, sinfonxonalari o'quv jihozlari bilan ta'minlandi.

O'tgan hafta mahalla ahlining hamjihatligi sama rasida buniyod etilgan qo'shimcha binolarni foy-dalanishga topshirish marosimi o'tkazildi. Tuman hokimligi, mahalla aholisi va viloyat faoliari taklif etilgan tadbirda quruvchilar va maktab jamoasi ga minnatdorli bildirildi. O'quvchilarga kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi. Tuman hokimligi o'quvchilarning kasb-hunar o'rganishi uchun maktabga tikuv mashinasini va boshqa jihozlar yetkazib berishni o'z zimmasiga oldi.

– "Tashabbusli budget" adolatli, haqqoniy tizim ekanligini bugun xalqimiz ko'rib, his qilib turidi, – deydi Aziz Qorjovov. – Bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishida faol ishtirot etishining, ularni fikri, istaklari hisobga olinishining yorqin ifodasi bo'limoqda. Endi qishloqdagagi muammolarni hal etish uchun hokimlik va boshqa idoralarga murojaat qilib borishga xojat qolmadi, o'zimiz tashabbus bilan chiq-sak, hamjihat bo'lsak, har qanday masalan hal etish mumkin ekan, deyishyapti odamlar. Shu bois "Tashabbusli budget"ning keyingi mavsumlarida maktab uchun sport zali qurish, qishloq ichki yo'llarini asfalt qilish loyihalari bilan qatnashish niyatidamiz.

Dilshod HAMIDOV.

Savol bering, javob beramiz

QUYOSH BATAREYASI XARID QILSANGIZ, XARAJATINGIZNING BIR QISMI QOPLAB BERILADI

Dehqon xo'jaligimda ekinlarni sug'orishda suv nasosidan foydalaman. So'nggi vaqtarda elektr energiyasi uchun ko'p to'lov qildim. Naqd pulimga 5 kWli quyosh batareyasi sotib olib, suv nasosiga o'rnatsam, xarajatingizning bir qismini davlat to'lab berishini eshitdim. Shu gap rostmi? U qancha miqdorda bo'ladi?

Kamol UMAROV,
Oqdaryo tumani.

Ha, rost. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining qiyatini to'liq to'lagan holda ularni xarid qilgan va o'rnatgan iste'molchilarga xarid xarajatlarining bir qismi quyidagi miqdorlarda Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasi hisobidan kompensatsiya qilinadi.

Quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o'rnatganlik uchun kompensatsiyalar miqdori o'rnatilgan quvvati quyidagicha:

- 0,5 kWdan 1 kWgacha bo'lganda, bazaviy hisoblash miqdorining, ya'ni BHMning 7 barobari (2 million 310 ming so'm);
- 1 kWdan 1,5 kWgacha bo'lganda BHMning 10 barobari (3 million 300 ming so'm);
- 1,5 kWdan 2 kWgacha bo'lganda BHMning 15 barobari (4 million 950 ming so'm);
- 2 kW va undan yuqori bo'lganda BHMning 20 barobari (6 million 600 ming so'm);
- Agar siz yangi yerlar o'zlashtirganingizda yoki tuk quduqlarda o'rnatilgan suv nasoslariga 5 kW va undan yuqori bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari joylashtirganingizda, xarajatingiz BHMning 50 barobari, ya'ni 16 million 500 ming so'm miqdorida qoplab beriladi.

SERTIFIKATSIYADAN O'TISH MAJBURIYIMI?

Bir necha yildan buyon qurilish sohasida ishlab kelaman. Yaqinda qu-ruvchilarga ham sertifikatsiyalash tizimi joriy etilishini eshitib qoldim. Bu tartib majburiyimi? Shu haqda ma'lumot bersangiz.

Rahim QO'L DOSHEV,
Kattaqo'rg'on shahri.

Shaharsozlik sohasidagi quyidagi toifa mutaxassislarini ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha har 3 yilda bir marta sertifikatlash tizimi joriy etiladi. Unda loyiha boshqaruvini va texnik nazoratni, shu jumladan, yo'nalishlar bo'yicha nazoratni olib boruvchi mutaxassislar, loyiha tashkilotlarining mullalif nazoratini olib boruvchi mutaxassislar, shuningdek, loyiha bosh muhandislari va bosh arxitektorlari, pudrat tashkilotlarining ichki nazoratini amalgaga oshiruvchi mutaxassislar sertifikatsiyalashdan o'tadi.

Zafar QARSHIYEV,
huquqshunos.

Grek yong'og'i qanchalik foydali?

Grek yong'og'i respublikamizda keng tarqalgan quruq mevalardan biri. Keyingi yillarda mamlakatimizda yong'ozzlarni ko'paytirish orqali yong'og' eksportini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 1-iyundagi "Yong'og'ish lab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori soha rivojida muhim qadam bo'ldi.

Grek yong'og'ining ozu-yavvi qiyatini yuqori va moyi shifobaxsh. Samarcand iqtisodiyot va servis instituti servis kafedrasi assistenti G'.Pardon yevning shifobaxshligi grek yong'og' tarkibiga kiruvchi yog'yuqori darajada to'ymagan yog' kislotalaridan tarkib topganligi va E-vitaminiga boy ekanligi bilan izohlanadi. Grek yong'og' i moyi inson organizmi keksiyishi jarayonini seklinlashtiradi va organizmning tashqi muhitning salbiy ta'siriga qarshi kurasha olishini kuchaytiradi.

Bu yog' keksa yoshdagil odamlar, ayniqsa, qon bosimi yuqori bo'lgan, ateroskleroz, yurak-qon tormlarining to'sili-shi, diabetga yo'liqgan insonlar uchun zarur. Bundan tashqari, grek yong'og'idan ajratib olin-gan yog' inson xotirasini ham yaxshilaydi.

Qadimgi grek olimi va tarixchisi Gerodot yong'og' mevasiga aqlni peshlaydigan ozuqa, deb baho bergan. Bu mevadan pazandachilikda souslar, salatlar tayyorlashda, qandolatchilikda esa konfet mahsulotlari, murab-bolar tayyorlashda keng foydaliladi. Grek yong'og' i mag'zi quruq meva sifatida hech qanday kulinariya ishlovi berilmasdan to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinadi. Uning mag'zi tarkibida inson organizmi uchun eng zarur, o'rin almashirmaydigan aminokislotalarni tutuvchi oqsimning ham muhim manbai bor.

Demak, har birimiz sog'lig'imizga befarq bo'limidan, oziqlanish ratsionimizda grek yong'og' i bo'lishini nazardan qochirmsligimiz kerak.

R.NORMAHMATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori.
A.G'AFUROV,
institut katta o'qituvchisi.

REKLAMA, E'ONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali quyidagi lavozimlarga**

TANLOV E'ONL QILADI

Katta o'qituvchi: sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiyyi fanlar kafedrasiga 0,5 shtat birligida.

Katta o'qituvchi: sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiyyi fanlar kafedrasiga 0,5 shtat birligida.

Katta o'qituvchi: jismoniy tarbiya, sport nazariysi va uslubiyati kafedrasiga.

Tanlova ishtirot etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi

**Manzil: Samarqand shahri Cho'pon ota ko'chasi, 13-“A” uy.
Telefonlar: +99866-236-21-28, +99893-357-74-95.
E-mail: minsport_markaz_sf@mail.ru**

DA'VOLAR BO'LSA...
Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusi Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Valiyev Musinjon Xodijeyevchiga (2023-yil 25-iyunda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Vaxidov Xatam Irgashovichga (2018-yil 7-avgustda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barzo Jo'raqulova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusi Mirzayeva Barzo Jo'raqulova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz. **Manzil: Jomboy tumanı Ze-buniso ko'chasi, 4-“A” uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusi Karimov Safarga (2015-yil 11-martda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Raximova Lola Zoxidovnaga (2018-yil 30-mayda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelik shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-yu.

Toyoq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusi Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasida marhum Raximova Lola Zoxidovnaga (2018-yil 30-mayda vatof etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xolmurodov Anvar Xolmurod o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyoq tumanı Toy-lop shaharchasi.

Bugungi "Zarafshon" gazetasi tarixi haqida ko'p gapiresh mumkin va yozaveramiz ham. Unda bobolarimiz hayoti, orzusi, armoni muhrlangan. Lekin behbudiyshunoslarning ko'payganligi sababli "Zarafshon"ning "Samarqand" gazetasi davomchisi ekanligi, uning idorasi o'zgaligi, 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyingi barcha nashrlar bolsheviklar manfaatiga xizmat qilgani, ularning jadidlar g'oyasiga aloqasi bo'lmagani borasi da bahslar qulqoqa chalmoqdaki, bu borada ba'zi fakt va dalillarga e'tibor qaratamiz. Gapni "Samarqand" gazetasidan boshlaymiz.

"Zarafshon" gazetasini jadid bobolar "Samarqand"iga qay darajada meroxso'rlik qila oladi?

Avvalo, "Zarafshon" gazetasining bugungi maqsadidin kelib chiqadigan bo'lsak, u milliy istiqolimiz g'oyasining tarixiy ko'rinishi - jadidlar g'oyasiga, orzusiga hamohang ekanligini ko'ramiz. Bu huquqiy asos emasdир, lekin maniqiy asos hisoblanadi.

Qolaversha, "Samarqand" - "Hurriyat" - "Mehnatkashlar tovushi" - "Kambag'allar tovushi" - "Zarafshon" gazetalarini bir-biri bilan bog'lab turgan robita bor. U ham bo'lsa, xalqqa ma'rifat tarqatib, milliy ozodlikka erishishgina emas, mammakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish g'oyasidir.

Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy noshirligi va muharrirligidagi "Samarqand" gazetasini 1913-yil aprelda chop etilgan bo'lsa-da, 1908-yildan gazeta oshish harakatiga tushgan, besh yil davomida mustamlakachilar idoralari ostonsida sargardon bo'lgan (bu ma'lumot "Oxranka"ning arxiv hujjalari va Sadreddin Ayniy maqolasida saqlangan):

"1908 nchi yildan o'z idorasinda biron gazeta chiqarmoq fikrig'a tushub, 1913-yil aprel oyinda bu maqsadiga yetishub "Samarqand" gazetasining bir necha raqamni chiqarishga muvaffaq bo'lg'an". (Bu haqda qarang: S.Ayniy. Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlari kim edi? "Mehnatkashlar tovushi" gazetasasi, 1920-yil 8-aprel.).

Nashrning asosiy maqsadi ma'rifat ziyozi bilan avomni uyg'otib, tafakkuri keng millat darajasiga yetkazib, ular bilan

"HURRIYAT" DAN BOSHLANGAN NASHR

YOXUD MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASOS SOLGAN GAZETA

yurtni ozodlikka olib chiqish edi. Bu vazifa Nikolay taxtdan qulagach, iqtidorda kelgan muvaqqat hukumat davrida ham o'zgarmadi. Jadidlar birdan bolsheviklar tomonga o'tib ketishdi, degan fikr noto'g'ridir. "Hurriyat" gazetasidan ko'chirma:

"Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi". (Abdurauf Fitrat. Siyosiy hollar. "Hurriyat" gazetasasi, 1917-yil 8-noyabr.).

Behbudiyning "Turkiston muxtoriyati" sarlavhasi maqolasidan: "27-noyabrdan Ho'qanda Turkiston muxtoriyati umumiylar musulmon siyezdida e'lon qilindi. Muborak va xabarli bo'lsin! Kamina ham majlisida bo'lish uchun iftixon etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" ("Hurriyat" gazetasasi, 1917-yil 19-dekabr.).

"Hurriyat"da bosinglan Hoji Muinning "Bolsheviklar va biz" maqolasidan parcha:

"Qani endi ko'rayluk, bu siyezdiga bolsheviklari qaysi ko'z bilan qarayarl.. Nima derlar!. Har holda bolsheviklar tek turmaslar. Biron bahona topib, bizning tinchimizni buzarlar, deb guman qilamiz. Chunki bularning chin mudodaclar hanuz hosil bo'lgan emasdur. Shuning uchun bizlarga kerakki, bu to'g'rida har ehtimolg'a qarshi hozirlik ko'rayluk. Tamom birlik bilan kuch yig'ayluk. O'z hurriyat va muxtoriyatimizni saqlamoq uchun mol va jonimizni fido etmakka hozir bo'lib turayluk ("Hurriyat" gazetasasi, 1918-yil 9-yanvar.).

Bolsheviklar hokimiyatni qo'liga kiritgach, 1917-yil noyabrdan emas, 1918-yil Turkiston muxtoriyati qonga botirilgach ham emas, balki ikki oy o'tib (may), "Hurriyat" gazetasini to'xtatiladi. Bu fursat kurash davri bo'lganiga guman bo'lishi mumkin emas.

Bolsheviklar "dohiy"si Leninning topshirig'i bilan to'xtatilgan "Hurriyat" o'rniqa chiqa boshlagan, rahbari



24-25-apr. 1917-yil. "Hurriyat" gazetasasi.

Yurtni ozodlikka olib chiqish edi. Bu vazifa Nikolay taxtdan qulagach, iqtidorda kelgan muvaqqat hukumat davrida ham o'zgarmadi. Jadidlar birdan bolsheviklar tomonga o'tib ketishdi, degan fikr noto'g'ridir. "Hurriyat" gazetasidan ko'chirma:

"Rusiyada yangi bir balo bosh ko'tardi, bolshevik balosi". (Abdurauf Fitrat. Siyosiy hollar. "Hurriyat" gazetasasi, 1917-yil 8-noyabr.).

Behbudiyning "Turkiston muxtoriyati" sarlavhasi maqolasidan: "27-noyabrdan Ho'qanda Turkiston muxtoriyati umumiylar musulmon siyezdida e'lon qilindi. Muborak va xabarli bo'lsin! Kamina ham majlisida bo'lish uchun iftixon etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!" ("Hurriyat" gazetasasi, 1917-yil 19-dekabr.).

"Hurriyat"da bosinglan Hoji Muinning "Bolsheviklar va biz" maqolasidan parcha:

"Qani endi ko'rayluk, bu siyezdiga bolsheviklari qaysi ko'z bilan qarayarl.. Nima derlar!. Har holda bolsheviklar tek turmaslar. Biron bahona topib, bizning tinchimizni buzarlar, deb guman qilamiz. Chunki bularning chin mudodaclar hanuz hosil bo'lgan emasdur. Shuning uchun bizlarga kerakki, bu to'g'rida har ehtimolg'a qarshi hozirlik ko'rayluk. Tamom birlik bilan kuch yig'ayluk. O'z hurriyat va muxtoriyatimizni saqlamoq uchun mol va jonimizni fido etmakka hozir bo'lib turayluk ("Hurriyat" gazetasasi, 1918-yil 9-yanvar.).

Bolsheviklar hokimiyatni qo'liga kiritgach, 1917-yil noyabrdan emas, 1918-yil Turkiston muxtoriyati qonga botirilgach ham emas, balki ikki oy o'tib (may), "Hurriyat" gazetasini to'xtatiladi. Bu fursat kurash davri bo'lganiga guman bo'lishi mumkin emas.

Bolsheviklar "dohiy"si Leninning topshirig'i bilan to'xtatilgan "Hurriyat" o'rniqa chiqa boshlagan, rahbari

o'zgarsa-da, jamoa saqlagan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasidagi fikrni o'qiyimiz:

"Uyrtuni saqlamoq va xalqning tinchligini tayin etmakh uchun askar kerakdir. Turkistonning yerlik aholisindan askar olmoq uchun markazda yaxshi qarorlar chiqarilg'on va bultur askar olina boshlag'on bo'lsa-da, bu ishdan hanuz yaxshi bir natija ko'ra olg'onimiz yo'q..

Turkistonda aksar aholi musulmon bo'ldig'i e'tiborg'a olinib, mundan uch yil burun turkcha til rasmiy davlat tili deb e'lon etilsa-da, buni amalg'a k'irgizmak uchun hanuz jiddiy tadbi ko'rolmadik. Balki bu "eski hammom eskitos" mazmunicha ko'p mahkama va idoralarda hanuz rus tili hukmi farmoniyashdadir" ("Mehnatkashlar tovushi" gazetasasi, 1921-yil 26-may.).

Bolshevik nashri bo'lganlari, milliy manfaat uchun tangidlarni yozmagan bo'lardir.

Endi "Zarafshon" gazetasida bolsheviklar ilgari surgan kommunizm g'oyasiga jadidlar munosabatidan bir parcha o'qiyimiz:

"Bu yer Turkistondur. Yevropa emasdur. Bunda kommunizmning har bir qoida va qonunini tatbiq qilib bo'lmaydur. Shuning uchun bundagi gazetalarda yozilaturlar so'zlarning har birini kommunizm maslag'iga tatbiq qilib yozish ham mumkin emasdur" ("Zarafshon" gazetasasi, 1922-yil 21-iyun.).

Mazkur fikrda ham kommunizm g'oyasini Turkistonda sun'iy ravishdab singdirib bo'imasligini, u avvalo, sanoati rivojlangan G'arb uchun o'ylab topilganiga sha'ma bor.

Bundan tashqari, jadidlar g'oyasidan toymayotgan bir muharrirni ikkinchisiga almashtirish uchun ham nashrning nomi o'zgartirilavergan degan fikr ham uyg'ona-ti tadqiqotchida.

Biroq nashrlarini bog'lab turgan shaxs (Behbudiy) va shaxslar guruhi (Fitrat, Hoji Muin, Saidrizo Alizoda, Sadreddin Ayniy va boshqalar) mavjud. Ular mustamla bayrog'ining o'zgarishi, uning natijasi-



"Zarafshon" gazetasida 110 yoshda

da esa gazetaning turli nomlarda atalishidan qat'i nazar, tahririyyada qolib, o'zlarining muqaddas maslaklari - yurt ozodligi uchun imkonlari doirasida harakat qilib, shu yo'ida jonlarini tikib, qurban bo'dilar.

Yana bir qiziq holat. Gazetalar nomi o'zgargani bilan boshqa shahardagilar ularni "Samarqand" gazetasini deb bilganlar. Masalan, Toshkentda chop etiladigan nashrdagi "Samarqandda matbuot ishlari" maqolasidan parcha o'qiyimiz:

"Samarqand" gazetasini yerlik muharrir va yoshlarning qo'larida 1921-yil yozig'acha Samarqand muzofotining oynasi, ham mahalliy hukumatning nashri afkori bo'lib keldi" ("Qizil bayroq" gazetasasi, 1922-yil 2-sentabr.).

Biz bunday ko'chirmalarni "Zarafshon" sahilalaridan 1937-1938-yillarda qatag'onigacha topishimiz mumkin. Bu alohida mavzu bo'lsa-da, jadidlar harakati o'sha fursatgacha davom etgan degan fikrni ta'kidlamoqchimiz.

Xulosa shulki, "Zarafshon" jadid bobolar g'oyasidan suv ichgan, uni chanqoq elga yet-kazishga harakat qilgan gazetadir. Shu bois "Zarafshon"ning to'yi nafaqat Samarqand, balki O'zbekiston matbuotining bayrami hisoblanadi.

Albatta, bunday fursatlarda takliflar takliflari 1906-yildan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", 1914-yildan "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'on" kabi gazetalar ham chiqq boshlagan. Ularning ham "Zarafshon" kabi davomchilar bor. Ular esa hanuz gazetalar bolsheviklar zamonidan boshlangan sana bilan chop etilmoqda. Bu tarixiy haqiqatini tanolmaslik hisoblanadi.

Ikkinci taklif shundaki, "Zarafshon"ning boshqa tillarda chop etiladigan hamrohlari ham shu nomda ("Zerafshan" emas) chiqishi maqsadga muvofiq. Bu fikr o'za tilda yozadigan hamkasblar va o'qiyidigan yurtdoshlar ko'ngliga tegmasligini istardim.

Fursatdan foydalanim, "Zarafshon"ning bosh muharrini, jonkuyar jamoasini ulug' sana, quvonchli bayram bilan samimiyy qutlayman! Ijodga baraka, azizlar!

Halim SAIDOV, filologiya fanlari doktori.

O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hozir

"Zarnews.uz" saytida "Talabalar o'qishga kirishda maktabda olin bilimlari asqotdimi yoki..." mazmungidagi so'rov o'tkazdi. So'rovnoma bir nechta olyi-gohlarning birinchi bosqich tala-balari ishtiroy etdi. Achinarli, kamdan kam talaba maktabni tilga oldi. Turli hududlardan ke-lib o'qiyotgan o'n nafar talabaving sakiztasi o'quv markazda olin bilimlari evaziga o'qishga kirganin ta'kidladi. Bundan kelib chiqadiki, biron tuman maktabining yuz foizlik natijasi yoki qaysidir maktab bitiruvchilarining o'qishga kirish ko'rsatichlarining pastligini haqiqiy holat deb baholash va ayni shu statistika asosida ta'limda kel-gusi chora-tadbirlarni belgilashga shoshmaslik kerak, shekilli.

Masalan, maktab bitiruvchisi o'zi ta'lim olayotgan maktabdan qoniqmay, tuman markazi yoki viloyat markazidagi biron o'quv kursiga qatnab, shuning natijasida ollygotha kirgan bo'lsa, u bitiruv attestatini olgan tuman maktabining bu natijada qanchalik hissasi bor degan haqli savol tug'iladi. Bunda hududlardagi o'quv markazlari, natija ko'rsata olnan repetitorlarning orni katta. Masalan, Qo'shrabot tumanining chekka bir hududidagi o'quv markazida naqaqt viloyatimidan, Qashqadaryo, Navoiy, hatte Toshkent viloyatidan kelib ta'lim olayotgan o'quvchilarini uchratasiz. Hozir faqatgina olyi ta'limga test topshirish davridagiga emas, butun yil davomida viloyat markazidagi o'quv markazlarida tulu hududlardan abituriyentlarni ko'rishingiz mumkin.

Har bir ota-onha farzandining olyi ta'limda o'qishi kelajakda o'z hayot yo'lini topishida muhim deb biladi.

Bugunning gapi

ta qilmaydi? Inson hayotidagi bilim olish uchun eng muhim bo'lgan yoshlik davri, 11 yil vaqtining bekor o'tib ketayot-gani-chi?

Uzulsiz ta'lim tizimida umumiyo o'rta ta'limdan so'ng olyi ta'limga yo'li oshish lozim. Bugun buning o'rta tizimda xususiy ta'lim tizimi paydo bo'ldi. Yana bir qiziq jihat, o'rqa yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda hoziralar ko'payib solayotgani. Ota-onha maktabdan qoniqmay, qiyinchilik bilan repetitorga pul sarflab, farzandini o'qitadi. Bir tomonda esa bitiruvchilar o'quv yurtiga kirish ko'rsatkichlari bilan kim-lardir rag'bat oladi, maqtov eshitadi.

Shu yil imtihon paytlari yana bir qiziq gap ulqoqla chalindi. Qaysi bir tuman ta'lim mutasaddilari oliyqoligha hujjat topshirgani maktab bitiruvchilarini yig'ib, qaysi universitetga topshirgani bilan astoy-dil qiziqlidi. Bu e'libordan ko'ngli ko'tarilgan bitiruvchi yoshlar Jahon iqtiyosidioti va diplomatiya, Jahon tillari, O'zbekiston Milliy universiteti kabi nomlarni tilga oladi. Buni eshitigan mas'ullar he yo'q, be yo'q ularni abyay boshlaydi: baland dorga osilib nima qilasan, bunday pastroq joylarga topshirsang bo'lmaydim? Ertaga kirolmasalar, tumanimiz ko'rsatkichlari tushib ketishini o'yalamadilarni?

Xo'sh, nega ular bir nechta mas'ulning o'zidan yuqorida topshiradigan ijobjiy hisoboti uchun yoshligidan qiziqqan, bir umr o'rqa qilgan oliyqoligha hujjat topshirmsligi kerak? Eng muhim paytda ularga dalda beradigan odamlar o'zini bunday tutishi o'sha yig'inda ishtiroy etgan, maqsadni katta oliga yoshlarning ruhini, shashagini sindirib qo'yamidimi, bu imtihon paytda o'z ta'sirini o'tkazmaydim? Achinarli, buning bari statistika, hisobotni a'lo topshirish ortidan quvvishning oqibati aslida. Joriy yil maktab bitiruvchilarining 36 foizi 56,7 balidan kam to'plagani asosan maktab ta'limi bilan cheklangan bitiruvchilar va bu bir hudud-dagina emas, umumam ushbu tizim o'z vazifasini bajarmay qo'yanigini bildiradi. Sulaymon MARDIYEV.

Xonamga yaqinlasharkanman, eshigimdag yo'zuvni sinchiklab o'qiyotgan yoshi ulug' insonga ko'zim tushdi. Kayfiyati yaxshi emas, avzo buzuq ko'rindi men. Ishqilib tinchlik bo'isn-da, dedim ichimda tanqidiroq yozilgan oxirgi maqolamini eslab. Tanqidni ko'tara olmaydigan, ishidagi kamchiliklarni to'g'rilash o'rniiga jurnalist bilan yoqalashadiganlar ham bor, axir. Meni ko'riishi bilan "Siz palonchimiz?", dedi. Ana, boshlandi...

ESIZ OTA, SADQAI FARZAND

Afsus, keyingi gap-so'zlar o'ylaganimdan ham xunuk chiqdi.

Kimligimni bilgach, kutilmaganda ota-xonning chehrasi ochilib, samimiy so'rashdi. Xuddiki meni oldindan tanigandek.

Xonaga kirdik, quyuq salom-alikdan so'ng kimligini so'rashga yimanib turgandim, o'zi muddoga o'tdi:

- Shu desangiz, o'g'limning ish joyini ko'ray, debl keldim. Tahririyat, siz va jamoangiz haqida gapirib bergandi.

- Qanday yaxshi, farzandining ortidan so'rab keladigan otalar ham bor ekan-ku, dedim xursand bo'lib.

- Mana, o'g'